

**G'ARB VA SHARQ TAFAKKURINING, IBN XALDUN MEROSIGA
TA'SIRI.**

**THE INFLUENCE OF IBN KHALDUN'S LEGACY ON WESTERN
AND EASTERN THOUGHT**

**ВЛИЯНИЕ НАСЛЕДИЯ ИБН ХАЛДУНА НА ЗАПАДНУЮ И
ВОСТОЧНУЮ МЫСЛЬ.**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası
o'qituvchisi*

Ochilov Bxatiyor Shuhrat o'g'li

Email. Baxtiyorochilov7777@gmail.com

+998933056227

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ibn Xaldunning falsafiy qarashlari tahlil qilinadi, shuningdik, uning asabiya (ijtimoiylashuv jarayoni) va umron (sivilizatsiyalshuv jarayoni) konsipsiyasining shakllanish jarayoniga Yunon va Markaziy Osiyolik allomalar falsafasining g'oyaviy tasiri borligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Ibn Xaldun, Asabiyya, Tafakkur, Umron, Tarix falsafasi, Antik falsafa, Markaziy Osiyo allomalari, Sivilizatsiya nazariyasi, Muqaddima, Tamaddum

Аннотация: В статье анализируются философские взгляды Ибн Халдуна, а также рассматривается идейное влияние философии греческих и среднеазиатских ученых на формирование его концепций асабийи(процесса социализации) и умрана (процесса цивилизации)

Ключевые слова: Ибн Халдун, Асабия (социальная сплоченность), Мышление, Умран (цивилизация), Философия истории, Античная

философия, Ученые Центральной Азии, Теория цивилизации, Мукаддим, Культура

Annotation: This article analyzes Ibn Khaldun's philosophical views, and examines the ideological influence of the philosophy of Greek and Central Asian scholars on the formation of his concepts of asabiyya (the process of socialization) and umran (the process of civilization).

Keywords: Ibn Khaldun, Asabiyyah, Thinking, Umran (Civilization), Philosophy of History, Greek Philosophy, Central Asian Scholars, Theory of Civilization, Muqaddimah, Civilization.

Kirish

Tarix, sotsiologiya va falsafada be'nazir nazariy qarashlarni yaratgan buyuk mutafakkir, yuksak tafakkur egasi Ibn Xaldun mersining durdonasi Muqaddima asarida "asabiya" va "umron" tushunchalarining mazmun mohiyati batafsil yoritilishga harakat qilinib, jamiyat taraqqiyoti, sivilizatsiya va hayot tiskini tushuntirishning nazariy asoslarini yaratgan. Ibn Xaldun idialistik tafakkurining shakllanishida yunon faylasuflari, ayniqsa Aristotil, shuningdik Markaziy Osiyo allomalari -Abu Nasr farobiy, Ibn Sino va Beruniyning kuchli ta'siri seziladi. Maskur maqolada mutafakkir dunyoqarashing shakllanishiga ta'sir qilgan manbalar, shuningdik, zamonaviy ilm-fan olimlari tamonidan olib borilgan izlanishlarida mutafakkirning ijtimoiy birlik va davlat rivojlanishiga oid qarashlarini yoritishda izlanishlar olib borilgan.

Natija va tahlillar

Ikkinchi uyg'onish davrining vakili Ibn Xaldunning "Muqaddima" asari Yevropa tafakkurining yuksalishida muhim manba bo'lib xizmat qildi. Xususan, mutafakkirning tarixiy jarayonlariga bergan tarixiy tahlillari XVII asrda o'rganila

boshlandi. Bu jarayon XIX asrda ilmiy jihatdan qiziqish orttirib, Yevropa ijtimoiy-falsafasiga yangiliklar olib keldi. Shuningdek, Yevropa ilm-fanida jamiyat qatlamidagi kishilarda pastivistik haraktlar kuzatilish boshlangan vaqtda ilim fanga yangicha dunyoqarashning kirib kelishi olimlarda ko'plab yangi ilmiy izlanishga o'zgacha yondashuvlarning shakillanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Mutafakkirning ilmiy merosini o'rgangan Fransuz sharqshunosi Ernest Renan "islom dunyosidagi yagona tarixiy tafakkur egasi"(1) sifatida ta'riflab, mutafakkir qarashlarini antik falsafasi bilan uyg'unlikda tahlil qildi. Mutafakkirning "Muqaddima" asarida qadimgi antik davr olimlarining tamaddum haqidagi qarashlari va mantiq ilmiga oyid fikrlari olimning ilmiy mersoida aks etgan. Yunon faylasufi Arastu, musulmon renesansi vakili Farobiy va Ibn Sinolarning falsafiy yondashuvlariga befarq bo'lmagan. Ibn Xaldun, Ibn Sino falsafiy qarashlarida Farabiy dunyoqarshi ta'siri borligini, ijtimoiy-falsafiy muhokamalarda Farobiy qarashlarini davom ettirganligini ko'rsatib, yuqori ijtimoiy yondashuvlarni chuqur tahlil qilib tizimlashtirib, yangi bosqichga ko'tardi(2). Ibn Sino jamiyat qonuniyat asosida jadallashuvini ta'kitlab, bu voqiylik jarayonlari ichki tartibotga mustahkam tayangan holda, mazmun biridan ikkinchisiga o'tib borishi zaruriyat, imkoniyat, voqiylik, sababiyat singari belgilar vosidasida ro'y berishini oshkor etgan(3). Mutafakkir bu jarayonlarni kuzatib olamni zaruriy vujud va imkoni vujudga bo'ladi, bular sabab va oqibat munosabatlarining shakillanishining o'zginasi ekanligini e'tirof etib, jarayonlashuv davomida ikka holat ham biri birini o'rnini davom ettiradi va tartibli ketma ketligida amalga oshishini olam va odam birligi qonuyati bilan izohlaydi.

Mutafakkir ijodini o'rgangan ingliz tarixshunosi Arnold Toynbee (1889–1975) ning izlanishlari o'rinli sanaladi. Tarixshunosning monimintal asari (Tarixni o'rganish)da sivilizatsiyalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va qulashi tahlil qilgan va bu borada Ibn Xaldunning fikrlarini o'rinli sanaydi. A. Toyenbeening, sivilizatsiyalarning hayot tskilini – tug'ilish, o'sish va tanazzul haqidagi qarashlari shakillanishida, Ibn Xaldunning "asabiyya" (ijtimoiy birdamlik) nazariyasi unga

ilom mabaayi bo'lib xizmat qilgan(4). Mutafakkirning ijtimoiy birlashuv va tarix siklik tabiyatiga oid qarashlarining sivilizatsiyon nazariyasi haqidagi qarashlari uchun "sotsiologiya otasi"(5) deb ta'riflagan. Ibn Xaldunning tamaddum va umron haqidagi o'tkir fikr va nazariyalari faransuz, ingliz, va nemis olimlarniga ilhom manbayi bo'lib xizmat qildi. Hayotiy sharoyitlar va tarix zarvaraqlarida sulola nufuzining pasayishi Ibn Xaldun qarashlarining shakllanishiga yorqin asos bo'la oladi(6). Bugungi kun olimlarining nazariy fikrlari bilan taqqoslaganda, G'arb ilim-fani bilan raqobatlasha oladigan sharq mutafakkirlarining eng yuqori cho'qqisi sifatida baholanadi. Mutafakkirning tarixiy jarayonlarga nazariy yondashuvi, analitik fikrlari va jamiyatni bir butun tizimini yaratishdagi harakatlari bois, ilim-fan vakillarining bahs-munozaralarini markazidagi yirik shaxsga aylandi. Muqaddima asari tarixiy voqiyalar to'plami emas balki, tarixiy hodisalarni nazariy jihatdan tahlil qilgan asar sifatida etiroflanadi. Mutafakkirning Antik yunon falsafasi va islomiy falsafa uyg'unligini aks ettirgan "Muqaddima" asari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar

1. **Ernest R.** *De la philosophie péripatétique chez les Arabes*, Paris, 1952, p. 35.
2. **Қаюмова А.Т.** Ибн Халдуннинг илмий-фалсафий мероси. Бухоро. 2021. Б-56.
3. **Қаюмова А.Т.** Ибн Халдуннинг илмий-фалсафий мероси. Бухоро. 2021. Б-56.
4. **Arnold, T.** *A Study of History*. Oxford: Oxford University Press, 1972, p. 71
5. **Arnold, T.** *A Study of History*. Oxford: Oxford University Press, 1972, p. 72
6. **Umli! A.** *LTiistoire et son discours: essai sur la methodologie dTbn Khaldoun*. Rabat, 1979. B-51.